

**Kokand Universiteti Andijon filiali 1-bosqich talabasi**

**Qobilova Tursunoy**

**Ilmiy rahbar: Kokand Universiteti Andijon filiali dosenti**

**Xolmirzayeva Madina Akramjonovna**

**Kalit so'zlar:** buyrak yetishmovchiligi, og'ir, o'tkir nefrit, surunkali nefrit, piyelonefrit.

**Annotatsiya:** Shubu maqolada o'tkir buyrak yetishmovchiligi (OBY) — buyraklarning to'satdan (odatda bir necha soat yoki kun ichida) o'z funksiyasini bajarishni to'xtatishi holatlari, bunday holatlarda buyraklar qonning filtrlanishini to'xtatish jarayonlari, natijada organizmda zararli moddalar va suyuqlik to'planib qolishlari hamda bu jarayonlarni erta aniqlansa va to'g'ri davolanish holatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bugungi kunda dunyoda buyrak yetishmovchiligi bilan kasallangan bemorlarning soni tobora oshib borayotganligi, statistik ma'lumotlardan ma'lum. Bu kasallik yuzasidan jahon bo'yicha o'lim holatlari ham ortib bormoqda. Bunday holatni yuzaga kelishini oldini olish uchun aholi o'rtasida bu kasallikning yuzaga kelish sabablari va uni oldini olish haqida yetarli bilimlar bo'lishi va bu kasallikga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Buyrak yetishmovchiligi buyrak faoliyatining pasayishi sindromi bo'lib, to'satdan (o'tkir) yoki sekin-asta (surunkali) ro'y beradi. Ko'p qon yo'qotish, mexanik shikastlanish tufayli qon bosimining pasayib ketishi yoki bemorning qon guruhiga mos kelmaydigan qon quyish, tok urishi, septik abort va boshqa; dorilar va boshqa metall tuzlaridan zaharlanish oqibatida buyrak parenximasining shikastlanishi; siydik yo'lining o'sma yoki buyrak toshlari bilan bekilib qolishi, shikastlanish tufayli ikkala buyrak zararlanishi o'tkir buyrak yetishmovchiligiga sabab bo'lishi mumkin. O'tkir buyrak yetishmovchiligida buyrak faoliyati, xususan azot, suv tuz va boshqa moddalar almashinuvi izdan chiqadi, bunda siydik kam ajraladi, og'ir hollarda butunlay ajralmay qoladi. Qonda siydikchil (mochevina) miqdori ko'payadi, organizmning siydikdan zaharlanishi kuzatiladi; teri osti, qorin va ko'krak qafasida suyuqlik to'planadi. Surunkali buyrak yetishmovchiligi asosan buyrak va siydik yo'lining uzoq davom etadigan kasalliklari (glomerulonefrit, piyelonefrit, sil, buyraktosh kasalligi va boshqalar) oqibati bo'lib, buyrak to'qimasining bujmayishi (nefroskleroz) yoki xaltasimon kengayishi (gidronefroz) bilan davom etadi.

Tashnalik, og'iz qurishi, teri suv va tuz almashinishi, kislota ishqor muvozanatini rostlay olmay qoladi, oqsil almashinuvining zaharli mahsulotlari to'planadi, nerv gormonal regulyatsiya ham o'zgaradi, bu esa organizmdagi barcha a'zo va sistemalar faoliyatining buzilishiga olib keladi. U o'tkir va surunkali kechadi.

U buyrakning o'tkir yetishmovchiligi oqibatida yuzaga keladi. Buyrakning o'tkir yetishmovchiligi og'ir shikastlanishlar, kuyish, sovuq olishi, qon yo'qotish, suvsizlanish, allergiya, zaharlanish, sepsis oqibatida yuzaga keladigan shok natijasida umumiy qon aylanishi buzilishidan paydo bo'ladi. Surunkali buyrakda qon aylanishining buzilishidan (buyrak tomirlarining bekilib qolishi), buyrak kasalliklari (og'ir, o'tkir nefrit, surunkali nefrit, piyelonefrit) tufayli, siydik yo'llarining to'silib qolishi (tosh, o'sma, yallig'lanish infiltrati) sababli yuzaga keladi.

Buni natijasida lohaslanish, quvvatsizlik, tez charchash, bosh og'rishi, yaxshi uxlay olmaslik, ishtaha yo'qolishi, xotiraning pasayishi kuzatiladi. Bunda odam tashna bo'laveradi, terisi oqarib, quruq bo'lib qoladi, qichishadi, tez ozib ketadi. Qonni tekshirganda unda azot chiqindilari ko'payib ketganligini

kuzatish mumkin. Kasallikning so'nggi bosqichlarida qondagi mochevina va boshqa moddalar teri, shilliq hamda seroz parda orqali chiqa boshlaydi va shu joylarda turli o'zgarishlar paydo qiladi. O'z vaqtida tegishli davo tadbirlari ko'rilmasa, uremik koma vujudga keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, surunkali buyrak yetishmovchiligi bilan og'rigan bemorlarga oqsili juda kam bo'lgan parhez taomlar buyuriladi, osh tuzi ham cheklab qo'yiladi, shu yo'l bilan kasallik rivojlanishining oldi olinadi. Kasallikni oldini olish buyrak va siydik yo'llari yallig'lanishini o'z vaqtida davolashdan iborat. Doimo shifokor kuzatuvida bo'lib, siydik va qon tahlillari nazorat qilib turilsa, uning oldini olish mumkin.

**Takliflar:** buyrak yetishmovchiligini oldini olish uchun qon bosimni doimiy nazorat qilish, qandli diabetni boshqarish, sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollikni oshirish, soglom vazinni saqlash, zararli odatlar bilan shug'ullanmaslik dorivor vositalarni ko'rstamasiga asosan ehtiyotkorlik bilan qabul qilish bir kecha-kunduzlik suvning miqdorini qoplashdan iborat. Ushbu maqola buyrak kasalligi bilan kasallangan bemorlarni davolash uchun tibbiy chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqarishda muhim hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xastalıkları va davolanish choralari"/ Pol Bregg, Patrityiya Breg.— 2015-y.
2. "Urologiya"/ Akilov F. A. va boshqalar—Darslik. Toshkent. "Hilol media" 2020-y.
3. "Umumiy amaliyot shifokorlari uchun urologiya fanidan standart bayonnomalar" /O'quv qo'llanma. F. A. Akilov. 2009-y.
- 4."Urologiya" / Shodmomoov A.Q.— O'quv qo'llanma. 2008-y.
- 5."Boshlang'ich urologiya" /Allazov S. A., Allazov X. S. — O'quv qo'llanma "Tibbiyot ko'zgusi" 2021-y.